

PAPER

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Raximova Munirabonu Bahodir qizi<sup>1,\*</sup> and Sh.U.Sariyev<sup>1</sup>

<sup>1</sup>1-bosqich magistranti, TDPU and <sup>2</sup>Nizomiy nomidagi TDPU, “Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

\* munirabonuraximovaaa@gmail.com, shon-sharaf1973@mail.ru

## Abstract

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

**Key words:** Tanqidiy fikrlash, mustaqil fikr, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, metodika, tafakkur, innovatsion yondashuv.

## Kirish

Bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, har bir voqe-a-hodisa va matn mazmunini chuqur anglay oladigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflar bu borada eng muhim bosqich hisoblanadi, chunki bu davrda bolalarda tafakkur, xotira, nutq va dunyoqarash shakllanadi. John Dewey ta’kidlaganidek, “Taqidiy fikrlash – bu insonning har qanday hukm chiqarishda, harakatda yoki e’tiqodda ishonchli asosga ega bo‘lish uchun tahlil qilish va shubha qilish qobiliyatidir.” [1] O‘qish savodxonligi darslari orqali o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish – ularning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda samarali vosita bo‘la oladi.

So‘nggi yillarda umumiy o‘rta ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu ko‘nikmani shakllantirish, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darslarida tahliliy, baholovchi va mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil fikrlash bolalarning muammoni tushunish, muqobil yechimlarni ilgari surish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Ta’lim haqida so‘z borar ekan albattaki eng avvalo

boshlang‘ich ta’lim haqida gapirishimiz lozimdir. Chunki boshlang‘ich muhit har bir insonning kelajagida yuksak marralar egallashi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Har bir sohada rivojlanish bo‘lgani kabi boshlang‘ich ta’limda ham keng o‘zgarishlar, yangiliklar, o‘zgarishlar olib borilmoqda. Zamonaviy vositalar orqali dars o‘tish, dars jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Xususan o‘qish savodxonligi darslarida turli xil audiomatmlar qo‘yib eshittirilishi o‘quvchilarda keng tasavvur qilish, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishi uchun yordam bermoqda.

## Metodologiya

Taqidiy fikrlash va mustaqil fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi hisoblanib. Tanqidiy fikrlash – bu mavjud ma’lumotni shubha ostiga olish, uni tahlil qilish, o‘z fikrini asoslab berish, dalil keltirish va boshqa nuqtai nazarlarni tahlil qila olish qobiliyatidir. Mustaqil fikrlash esa insonning o‘z tajribasiga, bilimiga va kuzatuvlariga tayangan holda yangicha, ijodiy fikr yurita olishidir. Tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchi o‘z fikrini asosli ravishda bildirishga, o‘z qarorlarini qabul qilishga o‘rganadi, bu esa bevosita mustaqil fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikr yuritish malakalari shakllantiriladi. N.A.Ahmedova ta'kidlaganidek: "Boshlang'ich sinfa o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini uyg'otish – ularni hayotga tayyorlashning muhim bosqichidir." [2]

## Muhokama

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari:

### 1. Matn asosida tahliliy savollar bilan ishlash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari matn asosida quyidagi turdag'i savollarni berish orqali o'quvchilarni fikrlashga undashi mumkin:

- a) Matndagi qahramonning harakati haqida siz nima deb o'ylaysiz?
  - b) Agar siz shu holatda bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
  - d) Bu voqeа qanday tugashi mumkin edi?
- Bu kabi savollar o'quvchilarda kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur, o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

### 2. Rolga kirish va munozara texnologiyalari.

O'quvchilar matndagi voqealarni jonli tasavvur qilish, rollarga kirib, munozara yuritish orqali turli pozitsiyalardan fikr bildirishni o'rGANADILAR. Bu esa ularni fikrlarni solishtirish, tanqidiy yondashishga o'rgatadi.

### 3. Kreativ topshiriqlar va vazifalar.

a)"Matnga boshqa yakun yozing" b)"Qahramon bilan suhbat tuzing" d)"Nima uchun bu voqeа yuz berdi?" kabi topshiriqlar tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

### 4. Grafik organayzerlar (Venn diagrammasi).

Bu vositalar o'quvchilarga o'xshashlik va farqlarni aniqlash, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish, asosiy fikrni ajratib olishda ko'mak beradi.

Shuningdek, "**Oltin baliqcha**" ertagi bo'yicha: Kampir nega har doim ko'proq narsani so'radi? Agar u shukr qilganida nima bo'lardi? Bu kabi savollar orqali o'quvchilarda tahliliy yondashuv, oqibatni oldindan ko'ra olish va axloqiy baho berish ko'nikmalarini shakllanadi.

## Natijalar

O'qituvchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yo'naltiruvchi, fikrlash muhitini yaratib beruvchi, savollar beruvchi va fikrlar xilma-xillagini qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi zarur. U quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanishi mumkin:

**Muammoli savollar** – muammoli holatlar orqali fikr yuritishga undaydi.

**Tahliliy savollar** – voqealarni chuqur tahlil qilishga o'rgatadi.

**Baholovchi savollar** – axloqiy va mantiqiy baho berish qobiliyatini shakllantiradi. Matn bilan ishlashda tanqidiy fikrlashga asoslangan yondashuv quyidagi jihatlar orqali ijobiy natija bera oladi: Savollarga chuqrroq yondashish; Fikrlararo bog'liqlikni tahlil qilish; Muallif fikriga nisbatan mustaqil munosabat bildirish.

## Xulosa

Xulosa o'rnda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limga bosqichi o'quvchining shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun asosiy poydevar hisoblanadi. O'qish savodxonligi darslari – bu nafaqat savod o'rgatuvchi, balki fikrlashni shakllantiruvchi muhim vositadir. Tanqidiy fikrlashga undashi fikrlashga asoslangan yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirishda muhim vositadir. O'qish savodxonligi darslarini mazkur strategiyalar asosida tashkil qilish, nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning tafakkur madaniyatini ham oshiradi.

Keyingi tadqiqotlar mazmunli topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni milliy ta'limga dasturiga integratsiya qilishga qaratilishi lozim. Shunday ekan, dars jarayonida har bir o'qituvchi o'quvchilarning fikrini so'rash, bahslashishiga ruxsat berish va erkin fikr aytishga rag'batlantirish orqali bu jarayonni maqsadli boshqarishi zarur. Tanqidiy fikrlashga asoslangan o'qitish modeli boshlang'ich ta'limga mustaqil fikrlovchi shaxsniga shakllantirishda samarali vositadir. O'qish savodxonligi darslariga kiritilgan interaktiv va fikrlashga undovchi topshiriqlar o'quvchilarning analistik va baholovchi fikrlashini rivojlantiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. SN.A.Ahmedova Boshlang'ich ta'limga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari, 2021
2. Dewey J. Biz qanday o'yaymiz (How We Think) 1933
3. Yusupova, G. Sh. Tanqidiy fikrlash – zamonaviy ta'limga asosiy mezoni. – "Ta'limga rivojlanish" ilmiy-metodik jurnali, 2019 4-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'limga davlat ta'limga standarti va o'quv dasturlari. Toshkent 2020
5. Abdullayeva, M. I. Boshlang'ich ta'limga pedagogikasi. Toshkent: Ilm Ziyo 2020.